

LOBAR QIZLAR VA MUHTARAMA AYOLLARIMIZNI YUKSAKLARGA KO'TARUVCHI DAVR

Xamrakulova Ravshanoy

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

ravshanoyhamrakulova@gmail.com

Tuychiyeva Hilola

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Qodirova Dilshoda

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mualliflar Vatanimizda ayol-qizlarning hayotini yana ham rivojlantirish uchun bo'layotgan ijtimoiy-ma'naviy, fan va ta'lif sohasida, sog'liqni saqlash borasida olib borilayotgan islohotlar va yuksalishlar borasida fikr yuritadilar.

Kalit so'zlar: E'zoz, yuksalish, g'urur, nafislik va go'zallik, matonatlilik va sobitlilik.

Dunyoda, xususan, Vatanimizda ayollarni e'zozlanishi, insonga o'zgacha quvonch va g'urur bag'ishlaydi. Ayollar borki, go'zaldir maskan, oila munavvar va farzandlar xotirjam. Bir o'ylab ko'ring, agar ayol o'qimishli va dunyoqarashi keng bo'lsa-chi? Bunda atrof yanada go'zallahadi, chunki u o'z bilimlarini farzandlariga hadya qiladi, ulashadi. Qadimdan, bizga rivoyat yetib kelgan, bir inson donishmand, ko'pni ko'rgan oqil insonning yoniga kelib, maslahat so'rabi. Uning aytishicha, bir qiz va bir o'g'li bor ekan, lekin yashash tarzining oddiyligi sababli, faqatgina bir farzandini o'qitishga qurbi yetadi. "Farzandlarimdan qay birini ilm olishiga ko'maklashay" deya so'rabi haligi inson. Shunda donishmand: "Qiz farzandingizni o'qiting, chunki u ulg'ayib, boshqa bir oilaga borishiga to'g'ri keladi va siz uning hayoti qanday kechishini tasavvur qila olmaysiz. Qizingizga yagona va tugamas boylik-iljni berasisiz. O'g'lingiz esa yoningizda bo'ladi, uning hayotiga, oilasiga yordam berishingiz mumkin. Lekin, hamma oilada ham ota-onalar o'g'il-qizlariga bir xil munosabatda bo'lmayatganiga ba'zida guvoh bo'lamiz.

Inson umri davomida o'zi mustaqil xohlab yoki atrofidagilarni qistovi bilan bilim olishga va biror bir kasbning egasi bo'lishga intiladi. Albatta, ilm olishga intilish- bu oliy ne'mat. Har kim ham bu ulug' niyatni o'z oldiga maqsad qilib olmaydi, afsuski. Ancha yillar avval, xalqimiz orasida "O'qib olim bo'larmiding", "Qiz bolaga o'qishni nima keragi bor", "Bu yil ham o'qishga kirolmadingmi, shuncha vaqtinagi, pulingni boy berdingga" – degan ko'ngilni g'ash qiluvchi fikrlarni ko'p bora eshitganmiz. Hozirgi davrda esa dillarni yayratuvchi, yana ham ko'proq ilmga yetaklovchi iboralar qulog'imizga chalinmoqda. Misol uchun, "Farzandlarimizni xorijiy tillar o'rganishga bog'cha yoshidan bergen edik, uyda tili biyron bo'lib, nimalarnidir gapiradi. Uyalganimdan o'zim ham til o'rganish kurslariga qatnayapman", "Magistraturada o'qishni niyat qildim, ayollar uchun imtiyozlari bor ekan, eshitib juda ham quvondim", "Shartnoma asosida, bakalavriatga universitetga kirdim, avvaliga, biroz xafa bo'ldim, lekin dadamlar ayol-qizlarga ta'lif krediti foizsiz ekanligini, va albatta, meni o'qishim kerakligini aytdilar". Bu kabi xushxabarlar nafaqat ta'limda, balki ijtimoiy hayotimizda ham bo'layotganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Jumladan, tazyiqqa uchragan ayollarimizga ham ruhiy, ham ma'naviy ko'mak berilmoqda. Ayollarimizni hayotini to'laqonli yorug' bo'lishi uchun bir qator qaror va farmonlar dunyo yuzini ko'rmoqda.

Masalan, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida” Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda qabul qilingan Senat tomonidan 2019-yil 23-avgustda ma‘qullangan O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev (Toshkent sh., 2019-yil 2-sentabr, O‘RQ-561-son)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni quyidagicha bo‘lib, “Mamlakatda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog‘lig‘ini saqlash, kasbga o‘qitish va bandligini ta‘minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, gender tenglikni ta‘minlash borasida olib borilayotgan islohotlarni tizimli davom ettirish, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish maqsadida: bir qator farmonlar aytib o‘tildi. Jumladan, xotin-qizlarimizni shartnoma to‘lovlarini qoplab berish, “El-yurt umidi” jamg‘armasidan ayollar uchun maxsus kvotalar ajratish, homilador ayollarimizni tug‘rug‘i jarayonlari va undan keyingi holatlarda qo‘llab-quvvatlash, turli ijtimoiy-ma‘naviy tazyiqlardan himoya qilish va jamiyatda o‘zining yetuk bilimlarini namoyish qilishiga ko‘maklashish kabilar. Albatta, biz yuqorida bir qator oddiy xalqimizning ulug‘ niyatlarini, fikrlari orqali eshitdik. Bularning hammasi yurtboshimizning ayol-qizlarimizga o‘zlarini farzandlari, qizlari, singillari qatorida ko‘rib, berayotgan e’tiborlaridandir. Bizning ayollarimizga ko‘rsatalayotgan hurmat va e’tibor o‘z samarasini bermoqda. Ushbu fikrimizga misol tariqasida, Nemis tili bo‘yicha xalqaro olimpiada g‘olibi Rayyona Ibrohimova, Parijsda bo‘lib o‘tgan xalqaro sport olimpiada mutloq g‘olibasi Diyora Keldiyorova (dzyudo, -52 kg), kumush medali sovrindori Svetlana Osipova (taekvondo WT, +67 kg). Ushbu dunyoni larzaga keltirgan go‘zal va nafis qizlarimiz, nafaqat tashkilotchilar tomonidan berilgan sovg‘a va medallarga ega bo‘ldilar. Bundan tashqari, yurtimizga qaytganlaridan so‘ng har biri davlatimiz rahbari tomonidan tayinlangan mukofotlar bilan taqdirlandilar. Fikrimizcha, taqdirlash jarayonini ko‘rgan har bir jippi qizaloq kelajakda Rayyonaxonga, Diyoraxonga va Svetlanaga o‘xshagan matonatli, ilmli va o‘z Vatanining sodiq farzandi- To‘maris avlodи ekanligini ko‘rsatadi. Albatta, bu faqatgina biz bilgan olma, sportchi qizlar edi, bulardan tashqari yana qanchadan-qancha hali topilib ulgurmagan olmoslarimiz bor. Olmoslarni esa ota-onalarimiz, ustozlarimiz sayqallashadilar.

Xulosa qilib shuni aytmoqchimizki, aziz opa-singillar, ayollarimiz yuksalish davri keldi. O‘qing, izlaning va o‘z bilimlariningizni dunyo miqyosida ko‘rsating. Bunda Sizga do‘srlaringiz, ustozlaringiz, ota-onangiz duolari va Muhtaram Yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev hamrohdirlar.

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yhati:

1. “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni <https://lex.uz/acts/-4494709>
2. “Prezident xotin-qizlarga oid farmonni imzoladi” Toshkent shahri, 2022 yil 7 mart. Maqola muallifi Yulduz Abdurashidova
3. “Polosondan Germaniyaga yo‘l: 16 yoshli o‘zbek qizi olimpiada g‘olibi bo‘ldi” Sarvar Ziyoyev, Kun.uz